

**MAKTABGACHA TA'LIMDA AQLIY TARBIYA BERISH MAZMUNI**

**Chuponkulova Sitora Bozor qizi**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
Pedagogika fakulteti maktabgacha ta'lim yo'nalishi  
3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning jismonan, ruhan, aqlan, yetuk shaxs bo'lib tarbiyalanishda aqliy tarbiyaning o'rni haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** aql, sezgi, tafakkur, diqqat, xotira, aqliy rivojlanish, mutaxasis.

Maktabgacha ta'lim va tarbiyani bola atrof-muhitdan, oiladan, mahalladan,maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tahsil olish jarayonlarida o'rganadi.Biz kelajagimiz davomchilariga ta'lim-tarbiya berish bilan birga ularning intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik,estetik, jismoniy, ruhiy hamda aqliy jihatdan rivojlantirishimiz hamda ularni boshlang'ich ta'limga sifatli,sog'lom, aql-idrokli qilib tarbiyalashimiz lozim. Aqliy tarbiya bu aqlni rivojlantirish maqsadida yosh avlodga muntazam maqsad asosida pedagogik va psixologik ta'sir ko'rsatishdir.

Aql keng ma'noda sezish va idrok etishdan boshlab to tafakkur va xayolni o'z ichiga oladigan bilish jarayonlari yig'indisi hisoblanib, u yosh avlodning insoniyat to'plagan bilimlar, ko'nikma va malakalar,me'yorlar, qoidalar va boshqa holatlar mavjud bo'ladi. Yan Amon Komenskiy maktabgacha tarbiya pedagogikasining mustaqil fan sifatida shakllanishiga asos solgan.

Shveysar pedagogi I.G.Petsolotssi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning rivojlanishiga katta e'tibor bergen. Aqliy tarbiya-shaxsning har tomonlama taraqqiyoti, uni turmush va mehnatga tayyorlashning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Aqliy tarbiya bilimlarni to'plash, biror narsani tahlil va sintez qilish, narsa va hodisalarini taqqoslash hamda tasniflash, umumlashtirish, mavhumlashtirish,ularni bir tizimga solishni nazarda tutadi. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarga aqliy tarbiya berishni to'g'ri tashkil etish uchun ularning aqliy rivojlanish qonuniyatları va imkoniyatlarini bilish kerak. Keyingi yillarda olib borilayotgan psixologik -pedagogik tadqiqotlarning natijalari maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishida juda katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Aqliy tarbiyaning asosiy vazifalari:

1.Bolalarda tabiat va jamiyat to'g'risidagi bilimlar sistemasini,ilmiy dunyoqarashi shakllantirish.

2.Aqliy faoliyat, bilish jarayonlari va qobiliyatlarini, aqliy jarayonining xilma-xil usullarini rivojlantirish.

3.Mustaqil bilish jarayonlarda qobiliyatlarini, aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish.

4.Aqliy bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

Aqliy tarbiya ijtimoiy tarbiyaning eng muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Bolaning aqliy rivojlanishida narsalarni idrok etish, ularni sezgi a'zolari orqali sezish kabi jarayonlarni ham o'z ichiga oladi. Masalan bola olmani qo'liga ushlab ko'rish orqali rangini, shaklini, tatib ko'rish orqali shirinligini va xushbo'yligini aql idrok orqali his qiladi.

Xulosa qilib aytganda aqliy mehnat madaniyatini, aqliy faoliyatining maxsus malakalari va ko'nikmalarini egallash darajasi,ilmiy bilish usullari va metodlari, turli yordamchi vositalardan foydalanish bilan ham bog'liqdir. Aqliy tarbiya vazifalardan har bir muktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashni tashkil etishda hisobga olish lozim bo'lgan bir qator vazifalarni o'z ichiga oladi. Boladagi qiziquvchanlik va aqliy faollik qay tarzda rivojlanganligini bolaning aqliy ko'rsatkiching yuqoriligidan ko'rish mumkin.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1.Shokarimova.KA.(2020) Pedagogik qobiliyat va pedagogik mahoratning ta'lif -tarbiya berishning ahamiyati.

2.Muktabgacha tarbiya pedagogikasi P.Yusupova. -T "O'qituvchi ".1993

3.A.Munavvarov Pedagogika. -T "O'qituvchi ".1996.